Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Jalolov, J. Chet til o‘qitish metodikasi. “O‘qituvchi“, Toshkent, 2012, 9-bet.

(2). Xoliqova, L.F. Filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o‘rganish metodi orqali rivojlantirish. Samarqand, 2023, 5-bet.

(3). Xoliqova, L.F. Filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatini loyiha asosida o‘rganish metodi orqali rivojlantirish. Samarqand, 2023, 6–7-betlar.

(4). Larmer, J., & Mergendoller, J. R.Setting the Standard for Project-Based Learning: A Proven Approach to Rigorous Classroom Instruction. 1703 N. Beauregard St. Alexandria, VA 22311-1714 USA (2015), p. 2.

(5). Fleming Douglas. S. A Teacher’s Guide to Project-Based Learning. AEL., Inc, Charleston, WV. Office of Educational Research and Improvement. Washington, DC, 2000 by AEL, p. 17–18.

Abdullayeva Saida Malikovna (JIDU Ingliz tili o‘qituvchisi)

CBI YONDASHUVINING CHET TILLARNI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqola OTM talabalarining ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ta’lim mazmuniga asoslangan o‘qitish (CBI) yondashuvini ishlatishning nazariy asoslari tadqiqotiga bag‘ishlangan. Tadqiqot doirasida CBI yondashuvini qo‘llash bo‘yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu yondashuvning kontekstli ta’lim va kontent va tilni integratsiyalab o‘rganish (CLIL) kabi boshqa yondashuvlar bilan o‘xshashlik va farqlari aniqlandi. Maqolada turli olimlarning qarashlari solishtirilib, CBI yondashuvi OTM talabalarining ingliz tilini o‘rganish samaradorligini oshirishdagi ahamayati ochib berildi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim mazmuniga asoslangan o‘qitish, kontent va tilni integratsiyalab o‘rganish, kontekstli ta’lim.*

Абдуллаева Саида Маликовна (преподаватель английского языка УМЭД)

ЗНАЧИМОСТЬ ПОДХОДА CBI В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. *Данная статья посвящена исследованию теоретических основ подхода Content Based Instruction (CBI), в развитии навыков общения на английском языке у студентов вузов. В рамках исследования был проведен анализ зарубежной и отечественной литературы по применению подхода CBI. Также были выявлены сходства и различия этого подхода с другими подходами, такими, как контекстное обучение и Content and language Integrated Learning (CLIL). В статье раскрывается значение подхода CBI в повышении эффективности изучения английского языка студентами вузов.*

Ключевые слова: *обучение с опорой на содержание, контентно-языковое интегрированное обучение, контекстное обучение.*

Abdullayeva Saida Malikovna (English Teacher, UWED)

THE SIGNIFICANCE OF CBI APPROACH FOR EFFECTIVE FOREIGN LANGUAGE ACQUISITION

Annotation. *This article aims to research the theoretical foundations of the Content-Based Instruction (CBI) approach in developing English communication skills among university students. Within the scope of the research, foreign and local literature on the application of the CBI approach was analyzed, as well as the similarities and differences between this approach and other approaches, such as contextual learning and CLIL were identified. By comparing the views of various scholars, the article reveals the importance of the CBI approach in increasing the effectiveness of the English language acquisition among university students.*

Keywords: *Content Based Instruction (CBI), CLIL (Content and Language Integrated Learning), contextual learning.*

Kirish. Oliy ta’lim sharoitida xorijiy tillarni o‘rganish ahamiyati yildanyilga oshmoqda. Ayniqsa, bugungi kun globalizatsiya sharoitida ingliz tilining butun dunyo miqyosida olib boriladigan muloqotga ta’siri katta. Bu esa xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganish uslublarining takomillashuviga turtki bo‘lmoqda. Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalari talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali usullaridan biri bu ta’lim mazmuniga asoslangan o‘qitish yondashuvidan foydalanishdir. Chet tili ushbu yondashuv doirasida tanlangan ixtisoslik fani mavzulari asosida o‘zlashtiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorijiy metodist olimlarning ishlariga murojaat qilinganida [1] xorijiy lingvodidaktikada ta’lim mazmuniga asoslangan o‘qitish yondashuvi keng muhokama qilingani-

ni ko'rishimiz mumkin. Ushbu yondashuvga o'xshash bir necha yondashuvlar mavjud bo'lib, ulardan biri ESP (English for Specific Purposes) ya'ni kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'rganish va EMI (English as a Medium of Instruction), ya'ni "ingliz tili ta'lim vositasi sifatida" yondashuvi. Uchinchi o'xshash yondashuv esa CLIL (Content and Language Integrated Learning), kontent va tilni integratsiyalab o'rganish.

Ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish metodikasi, ko'p manbalarda, Content-Based Instruction (CBI) yoki Content-Based Learning (CBL) deb ataladi. Ba'zi manbalarda esa Content Centred Instruction degan atama ham uchraydi. Bu yondashuvda chet tilini o'rganish uchun o'quv fanlaridan olingan mavzular ta'limning asosiy vositasi sifatida ishlatiladi. Biz mazkur maqolamizda ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish yondashuvi atamasini ingliz tilidagi muqobil varianti – Content Based Instruction, yoki uning abbreviaturasi bo'lgan CBIdan foydalanamiz.

CBI yondashuvining mohiyati haqida so'z yuritishdan avval, uning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlarini ko'rib chiqishimiz lozim. J.Cenoz va R.Zarobega ko'ra CBI yondashuvi yaratilishi 1960-yillarda Kanadadagi immigrant jamoalari uchun ikkinchi tilni o'rganishga mo'ljallangan mashhur "Immersion dasturi" (tilga sho'ng'ish) bilan bog'liq [2]. Immersion dasturiga ko'ra, oddiy maktab dasturidagi o'quv fanlarini o'qitishning asosiy vositasi ikkinchi chet til bo'lishi taklif qilinadi [3]. Bu dastur Kanadada ikkitillilik yoki bilingval ta'limni targ'ib etish bilan bog'liq. Jumladan, D.M.Brinton, M.ASnow hamda M.B Weschening tadqiqotlarida CBI yondashuvini qo'llab-quvvatlash uchun nazariy va lingvistik dalillar keltirilgan [4].

F.L.Stoller chet tili darslariga fan mavzularini kiritishni "xorijiy tilni o'rganish uchun qobiq" deb ataydi [5]. D.Edsall va Y.Saito esa ushbu yondashuvni qo'llashga qo'shimcha motivatsiya vositasi sifatida qaraydilar [6]. Bizning fikrimizga ko'ra, CBI yondashuvida talabalarni til tizimi haqida autentik bilimlar bilan ta'minlash va til kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida ixtisoslik fanlaridan olingan mavzu va matnlardan foydalaniladi.

A.Karimning tadqiqotida ko'rsatilishicha, CBI 1970-yillarning o'rtalarida Britaniya hukumati komissiyasi tomonidan tavsiya qilingan va o'sha davrdagi "Language across the curriculum" harakati natijasida shakllangan [7]. Bu yondashuv doirasida o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ikkita asosiy ko'nikmaga, ya'ni o'qish va yozishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu metodologiya tilni o'rganishni o'quv fanlari mavzulari bilan birgalikda olib borishni nazarda tutadi, bu esa talabalarni tilni haqiqiy kommunikatsiya vositasi sifatida ishlatishga undaydi.

Bu yangilik va o'zgarishlar keyinchalik, deyarli bir vaqtning o'zida Buyuk Britaniyada, AQSHda va Kanadada maxsus maqsadlar uchun til (Language for Specific Purposes) dasturlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu dasturlar doirasida turli soha vakillariga Ingliz tilini o'rgatish, qolaversa, ularning kasblariga xos vaziyatlarda ishlatish uchun zarur bo'lgan ikkinchi til ko'nikmalarini rivojlantirish yo'lga qo'yilgan edi.

Hozirgi kunda ta'limda CBIning turli xil o'qitish modellari qo'llanilmoqda [8]. Ushbu modellarning barchasi uchta xususiyatga ega:

1. Tanlangan o'quv fanining mavzulariga asoslanadi.
2. Autentik til va matnlardan foydalaniladi.
3. Talabalarning qiziqish va ehtiyojlariga moslashtiriladi.

Bundan tashqari, CBIning "theme-based instruction", "sheltered content instruction", "adjunct instruction" kabi turlari mavjud [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot doirasida oliy ta'lim o'quv yurtlarida ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish (CBI) yondashuvining nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini aniqlash uchun ko'plab ilmiy adabiyotlar va manbalar ko'rib chiqildi. Ta'lim mazmuniga asoslangan o'qitish (CBI) yondashuvining mohiyatini va uning til ta'limidagi qo'llanilishini o'rganish maqsadida xorijiy va o'zbekistonlik tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. CBI, kontekstli ta'lim va CLIL kabi yondashuvlarning qiyosiy tahlili o'tkazildi. CBI yondashuvining asosiy tamoyillari ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqotimiz doirasida olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ba'zida CBI va CLIL yondashuvlariga go'yoki bir yondashuv sifatida qaraladi. Bu esa, o'z navbatida, ular orasidagi farq va o'xshashliklar to'g'risidagi munozaralarga olib keladi. Jumladan, Content and Language Integrated Learning (CLIL) C.Dalton-Puffer ta'biriga ko'ra, 1990-yillardan buyon Yevropa mamlakatlarida rivojlangan bo'lib [10], bu yondashuvda o'quv fanlari chet tili vositasida o'qitiladi va ta'limning barcha bosqichlarida qo'llanilishi mumkin [11]. CLIL yondashuviga Yevropa Komissiyasi tomonidan "chet tilini o'rganishning eng maqbul usuli" sifatida ta'rif beriladi. A.Karim maqolasida ko'rsatilishicha esa, CBI yondashuvi asosan Shimoliy Amerika kontekstida qo'llaniladi [7].

Dunyo bo'ylab CBI va CLIL dasturlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar J.Cenoz tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, u CLILni alohida yondashuv sifatida atash g'oyasini tanqid qiladi. Uning tahliliga ko'ra, CBI va CLIL o'rtasida katta farq yo'qligi va paydo bo'ladigan har qanday farq tasodifiy ekanligi ta'kidlanadi. Uning fikriga ko'ra, ikkala yondashuvda o'quv fanlari ikkinchi yoki qo'shimcha til vositasida o'rganiladi. [12].

D.Coyle, P.Hood va D.Marshlarning fikricha, CLIL yondashuvida mazmun va tilning o'qitilishi va o'rganilishi qo'shimcha til vositasida amalga oshiriladi, bu esa sinfda faqat mazmun yoki faqat tilga alohida e'tibor qaratilmasdan ikkalasiga bir xil e'tibor beriladi [13]. Bu fikrga qo'shimcha tarzda, A.Karim CBI va CLIL yondashuvlariga ularning maqsad va vazifalari, mazmuni va amalga oshirilishi jihatidan bir xil deb qaralishi kerakligini ta'kidlaydi [7].

Ba'zi mualliflar ushbu atamalarni, hatto sinonim deb hisoblaydilar [14]. Bizning fikrimizga ko'ra, CBI va CLIL yondashuvlari orasida o'xshashliklar bor, albatta, biroq o'rtasidagi farqlar ham mavjud. Ikkala yondashuv ikkinchi tilni o'qitish vositasi sifatida ishlatadi va mazmunni til bilan integratsiyalashgan holda o'qitishni taqozo etadi. Biroq CBI yondashuvida ta'lim berish ingliz tili o'qituvchisi tomonidan amalga oshirilsa va asosiy maqsad chet tilini o'rganish hisoblansa, CLIL yondashuvi asosida o'tiladigan darslar ixtisoslik fanlari bo'yicha o'qituvchilar tomonidan o'tiladi, bunda asosiy maqsad ixtisoslik fanlari mavzulari bo'yicha bilimlarni egallashdir.

J.C.Richards va T.S.Rodgers ta'kidlariganlaridek, talabalarning chet tilini o'rganish samaradorligi bevosita ular o'rganayotgan materiallarning qiziqarliligiga, foydaliligiga va maqsadga muvofiq ekanligidadir [3]. Olimlarning ta'kidlaganlaridek, dastur tuzilish jarayonida talabalarning chet tilini qanday maqsadlarda o'rganayotganlarini va kelajakda qanday maqsadlarda foydalanishlarini hisobga olish kerak. Jumladan, A.D'Anglejan va G.R.Tuckerga ko'ra, beriladigan vazifa va topshiriqlar muhim masala ustida muloqot qilish bilan bog'liq bo'lganidagina, darslar talabalarda katta qiziqish uyg'otadi [15]. Shubhasiz, ta'lim mavzularini, vazifa va topshiriqlarni tanlash muhim, chunki bu, o'z navbatida, talabalarning chet tilini o'rganishga bo'lgan munosabatiga, ishtiyoqiga va motivatsiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunga qadar S.Krashenning ikkinchi chet tilini o'zlashtirish nazariyasi ta'limning barcha bosqichlarida integratsiyalangan ta'limni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Olim ikkinchi chet tilini o'rganish samaradorligini, birinchi tilni o'zlashtirish sharoitiga qay darajada o'xshashligi bilan bog'laydi. Unga ko'ra, o'qitishning asosiy e'tibori shaklga emas, balki ma'noga qaratilgan bo'lishi lozim. Agar til o'zlashtirilishi talabaning tushunish darajasida yoki undan biroz yuqori bo'lsa, o'rganilayotgan tilni ma'noli tarzda ishlatish uchun yetarli imkoniyat mavjud bo'lgan muhit ta'minlanishi kerak [16]. Yani chet tili darslarida asosiy e'tibor o'tilayotgan mavzuga qaratilsa, talabalarning chet tilidagi ko'nikma va malakalarini rivojlanishini osonlashtiradi, qolaversa, talabalarning ixtisoslik fanlari doirasidagi mavzularni yanada chuqurroq tushunishlariga olib keladi. Shu bois, bir vaqtning o'zida, ham til ko'nikmalarini, ham muayyan ixtisoslik fanlariga aloqador bilimlarni shakllantirish uchun autentik va mazmunli o'quv vaziyatlar yaratailishi kerak.

Y.G.Butlerning ta'kidlashicha, CBI yondashuvi talabalarga produktiv til ko'nikmalarini amalga oshirishda mazmunni tushunishga yordam beradi, bu esa ularga ham shakl ham mazmun ustida ishlashga imkoniyat beradi. Bu jarayon CBI yondashuvi uchun juda muhim bo'lib, metodikada "comprehensible input" deb ataladi [17].

CBI yondashuvi talabalarning o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun ham qo'llaniladi. CBI yondashuviga kommunikativ til o'qitishning bir qismi sifatida qaralishi lozim. Xususan, O.B.Villalobosning fikriga ko'ra, xorijiy tilni o'rganish oddiy grammatik kompetensiyani ustida ishlash bilan chegaralanib qolishi kerak emas. Talabalar chet tilini uning barcha madaniy, lingvistik va ijtimoiy elementlari bilan to'liq egallab, undan samarali foydalanishni o'rganishlari maqsadga muvofiq. O.B.Villalobos maqolasida kommunikativ kompetensiyaning to'rtta asosiy komponentini keltiradi: grammatik, nutqiy, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalar. Uning ta'kidlashicha, chet tilini an'anaviy tarzda o'qitishda, asosan, birinchi ikkita komponentga e'tibor qaratiladi [18]. CBI yondashuvida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda e'tibor, chet tilini uning madaniy xususiyatlari aks etgan vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan. Bir so'z bilan aytganda, til ko'nikmalari real vaziyat va kontekst asosida rivojlantiriladi [8].

Ba'zi olimlar CBI yondashuvining til va kontekstni integratsiyalab o'qitishiga urg'u bersa, boshqalar CBI yondashuvi autentik materiallardan foydalanishni, talabalarni yangi bilimlarni olishga undash va ularning qiziqishlariga moslashtirilganligini ta'kidlaydilar. CBI mavzusi nafaqat xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilingan, balki MDH davlatlarining ilm ahli tomonidan ham katta qiziqish bilan o'ganilib kelinmoqda.

Bizning qiziqishimizni K.M.Yaxyayeva tomonidan olib borilgan "Texnika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun chet tilida o'qishni kontent va tilni integratsiyalashgan holda o'rgatish metodikasi"ning tadqiqoti o'ziga tortdi. Mazkur tadqiqot texnika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun kontentga asoslangan chet tilini o'rgatish metodikasini ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lib, u ingliz tilini texnik fanlar kontekstida o'rganishni nazarda tutadi. Bu metodikada talabalarning texnika va til bilimlarini birlashtirib, ularning ingliz tilida texnik matnlarini tushunish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Bundan tashqari, mazkur tadqiqot doirasida Rossiya universitetlarida CLIL yondashuviga asoslangan ingliz tilini o'qitish metodikalari tahlil qilingan. Xususan, olima o'z tadqiqotida K.V.Shaposhnikov va boshqa olimlarning fikrlarini keltiradi. Ularga ko'ra, kasbiy faoliyatni egallash o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'lgan alohida ta'lim faoliyati doirasida ta'minlanishi kerak [19].

G'arb davlatlarida kontent va tilni integratsiyalashgan holda o'rgatish yondashuvi mashhur bo'lgan bir paytda, Rossiyada kontekstli yondashuv qo'llanishi keng tarqalgan. Mazkur yondashuv asoschisi A.A. Verbitskiy uning xususiyatlaridan biri, ta'lim maqsadining talabalarning o'quv faoliyatidan kasbiy faoliyatga ko'chishi deb ta'kidlaydi. Bu, o'z navbatida, talabalarning motiv va ehtiyojlari, maqsadlari bosqichma-bosqich kasbiy motiv va ehtiyojlarga hamda maqsadlarga o'zgarishi bilan belgilanadi [20]. Kommunikativ usuldan farqli ravishda, kontekstli ta'limda chet tilida muloqot qilish vaziyatining o'zi emas, balki subyekt faoliyatini vaziyatda belgilovchi shartlar tizimi bo'lgan kontekst modellashtiriladi.

Kontekstli ta'lim, CBI va CLIL bir qator o'xshashlik va farqlarga ega bo'lib, ular quyidagi jadvalda keltirilgan:

	Kontekstli ta'lim	**CBI**	**CLIL**
Til va kontekst integratsiyasi	Amaliy ko'nikmalar nazariy bilmlar bilan birlashib, kasbga yo'naltirilgan ta'lim orqali rivojlantiriladi.	Ixtisoslik fanlari mavzulari asosida til ko'nikmalari rivojlantiriladi.	Ingliz tili va tanlangan ixtisoslik fani bir vaqtda o'rganiladi.
Real vaziyatlarga e'tibor	Real kasbiy vaziyatlarni modellashtirib, talabalarni kelajakda ishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga tayyorlaydi.	Tilni o'rganish jarayoni haqiqiy hayotga yaqin bo'lgan vaziyatlar orqali amalga oshiriladi.	Tilni o'rganish jarayoni ixtisoslik fanlarini chet tili orqali o'rganish kontekstida amalga oshiriladi, bu esa ta'limni real sharoitlarga yaqinlashtiradi.
Talabalar faolligi	Talabaning ta'lim jarayonida faol ishtirokini nazarda tutadi va bu loyihaviy ish, muhokamalar yoki vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi.	Talabaning ta'lim jarayonida faol ishtirokini nazarda tutadi va bu loyihaviy ish, muhokamalar yoki vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi.	Talabaning ta'lim jarayonida faol ishtirokini nazarda tutadi va bu loyihaviy ish, muhokamalar yoki vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi.
Kommunikativ ko'nikmalar rivojlanishi	Talabaning kommunikativ ko'nikmalari real kasbiy vaziyatlarni modellashtirish orqali rivojlaniriladi.	Talabaning kommunikativ ko'nikmalari tilni real vaziyatlar asosida o'rganish orqali rivojlantiriladi.	Talabaning kommunikativ ko'nikmalari ixtisoslik fanlarini Ingliz tilida o'rganish orqali rivojlantiriladi.

Bizning fikrimizcha, CBI yondashuvi ixtisoslik fanlari mavzulari asosida til ko'nikmalarining rivojlanishi uchun real vaziyatlardan foydalanadi va talabalar faol ishtirokini ta'minlaydi, vas shu orqali samaraliroq ta'lim sharoitlarini yaratadi. Oxirgi yillarda Rossiya oliy o'quv yurtlarida kontentga asoslangan integratsiyalashgan ta'lim ancha rivojlanayotgan tadqiqot sohasi bo'lib kelmoqda. Bunga qaramasdan, K.M. Yaxyayevaga ko'ra, barcha ta'lim muassasalari uchun mazkur yondashuvga asoslangan umumiy ta'lim modeli mavjud emas. Olima V.M.Filippovichning Rossiya oliy ta'limida quyidagi kontentga asoslangan integratsiyalashgan ta'lim modellari keng tarqalgani haqidagi fikrini keltiradi:

1. Chet tilini, ixtisoslik fanlarini chet tili vositasida o'rganish uchun tayyorlovchi kurs sifatida o'rganish.
2. Chet tilini, o'z ona tilida ilgari o'rganilgan ixtisoslik fani orqali o'rganish.
3. Chet tili va ixtisoslik fanlarini bitta kurs doirasida bir vaqtning o'zida o'rganish.

Yaqin orada CBI o'qitish yondashuvi o'zbekistonlik olimlarining tadqiqot markazi bo'lishni bosh-

ladi. F.J.Masharipova bo‘lajak biolog o‘qituvchilarning o‘qish kompetensiyasini CBI va STEM texnologiyalari asosida rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan. Olimaga ko‘ra, CBI va CLIL yondashuvlari bir-biridan ta’lim maqsadlari va amalda joriy qilinishi bilan farq qiladi. Xususan, CBIga xos xususiyatlardan, “autentik tilni o‘zlashtirgan talabalar real tildan foydalanishga jalb qilinishi” deb aytib o‘tilgan [21].

Xulosa va takliflar. Ta’lim mazmuniga asoslangan o‘qitish yoki CBI yondashuvi, zamonaviy pedagogikada muhim rol o‘ynaydi. U chet tilini o‘rganishning samarali usuli bo‘lib, talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Mazkur yondashuvning nazariy va amaliy tamoyillari uni har bir ta’lim bosqichida samarali qo‘llash imkonini beradi. O‘zbekiston oliy ta’limi sharoitida CBI yondashuvi “Chet tili” fani asosida tashkil etiladi. Bu yondashuv talabalarni ingliz tilini bilish darajasini oshirib, ularga kelgusida ilm-fan va jamiyat hayotida faol ishtirok etishlariga imkoniyat yaratadi.

CBI talabalarning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki akademik va kasbiy muvaffaqiyat uchun zarur bo‘lgan boshqa ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu yondashuv talabalarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib, ularni yanada faol bo‘lishga va mustaqil ta’lim bilan shug‘ullanishlarini rag‘batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge, UK, Cambridge University Press, 2010.

(2). Cenoz J., Ruiz de Zarobe Y. Learning through a second or additional language: Content-based instruction and CLIL in the twenty-first century. Language, Culture and Curriculum, 28(1), 1–7, 2015. https://doi.org/10.1080/07908318.2014.1000921

(3). Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and methods in language teaching. Cambridge. Cambridge University Press, 2001.

(4). Brinton D., Snow M. & Wesche M. Content-Based Second Language Instruction. Boston: Heinle and Heinle Publishers, 1989.

(5). Stoller F.L. Content-based instruction: A shell for language learning or a framework for strategic language and content learning? Paper presented at the TESOL convention, Salt Lake City, UT, 2002. Retrieved from http://carla.umn.edu/cobaltt/modules/strategies/stoller2002/stoller.pdf

(6). Edsall, D., & Saito, Y. The motivational benefits of content. OnCue Journal, 6(2), 2012, p. 66–94.

(7). Karim A. Revisiting the Content-Based Instruction in Language Teaching in relation with CLIL: Implementation and Outcome. International Journal of Applied Linguistics & English Literature, Vol. 5, № 7, December, 2016. https://doi.org/10.7575/aiac.ijalel.v.5n.7p.254

(8). Stryker, S. & Leaver, B. Content-based instruction in foreign language education. Washington, DC, Georgetown University Press, 1993.

(9). Snow & D.M.Brinton (Eds.). The content-based classroom: Perspectives on integrating language and content (pp. 78–94), White Plains, NY, Addison Wesley Longman.

(10). Dalton-Puffer C. Discourse in content and language integrated learning (CLIL) classrooms (Vol. 20). John Benjamins Publishing, 2007.

(11). Dalton-Puffer C., Nikula T., Smit U. Charting policies, premises and research on content and language integrated learning. Language use and language learning in CLIL classrooms, 7, 2010, p. 1–19.

(12). Cenoz J., Ruiz de Zarobe Y. Learning through a second or additional language: Content-based instruction and CLIL in the twenty-first century. Language, Culture and Curriculum, 28(1), 2015, 1–7. https://doi.org/10.1080/07908318.2014.1000921

(13). Coyle D., Hood, P., Marsh D. CLIL. Content and language integrated learning. Cambridge, England: Cambridge University Press, 2010.

(14). Ruiz de Zarobe Y. CLIL and foreign language learning: A longitudinal study in the Basque Country. International CLIL Research Journal, 1(1), 2008, p. 60–73.

(15). D’Anglejan A., Tucker G.R. The acquisition of complex English structures by adult learners1. Language Learning, 25(2), 1975, p. 281–296.

(16). Krashen S. Second language acquisition and second language learning. New York, NY: Prentice-Hall, 1981.

(17). Butler Y.G. Content-based instruction in EFL contexts. Considerations for effective implementation. JALT Journal, 27, 2005, p. 227–245.

(18). Villalobos O. Content-Based Instruction: A Relevant Approach of Language Teaching. Innovaciones Educativas, 15, 2014, p. 71–83. https://doi.org/10.22458/IE.V15I20.515.

(19). Яхьяева К.М. Методика предметно-языкового интегрированного обучения иноязычному чтению студентов технического вуза (английский язык). Дис. канд. пед. наук, 13.00.02. Санкт-Петер-бург, 2021, 230 с.

(20). Вербицкий А.А. Личностный и компетентностный подходы в образовании: проблемы интеграции. А.А.Вербицкий, О.Г.Ларионова. М., "Логос", 2017.

(21). Masharipova F., K.Mizell. Active reading strategies in content-based instruction. Central Asian Problems of Modern Science and Education 2021 (1), p. 37–56.

Xuramov Ilxom Panjiyevich (Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti; e-mail:xuramovilxom@gmail.com)

BO'LAJAK PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARINING INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining kelgusi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim jarayonlarida innovatsion usullar orqali interfaol metodlarini qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyati davomida davriy va uzluksiz metodik tayyorgarligini oshirishda talabalik davridayoq kerakli bo'lgan bilim va ko'nimlarini egallab borishi masalalari muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *professional ta'lim, oliy ta'lim innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, metod, pedagog, faoliyat, bilim, ko'nikma.*

Хурамов Илхом Панджиевич (Термезский государственный университет, PhD докторант; e-mail: xuramovilxom@gmail.com)

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы формирования у будущих педагогов профессионального образования умений использовать интерактивные методы в образовательном процессе посредством инновационных методов в будущей профессионально-педагогической деятельности, а также приобретения необходимых знаний и навыков в студенческие годы для повышения их периодической и непрерывной методической подготовки на протяжении всей профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *профессиональное образование, высшее образование, инновационные технологии, интерактивные методы, метод, преподаватель, деятельность, знания, умения и навыки.*

Khuramov Ilkhom Panjievich (Termez State University PhD student; E-mail:khuramovilxom@gmail.com)

DEVELOPMENT OF FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS' SKILLS IN USING INTERACTIVE METHODS

Annotation. *This article discusses the issues of developing the skills of future vocational education teachers to use interactive methods in educational processes through innovative methods in their future professional pedagogical activities, and acquiring the necessary knowledge and skills during their student years to increase their periodic and continuous methodological training throughout their professional activities.*

Keywords: *professional education, higher education, innovative technologies, interactive methods, method, teacher, activity, knowledge, skills.*

Kirish. Dunyo miqyosida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablardan biri XXI asr pedagogikasini innovatsion texnologiyalar hamda interfaol ta'lim metodlari asosida takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Chuqur kasbiy bilim, undan unumli foydalanish ko'nikmalari, shaxsiy tashabbuskorlik, ijodkorlik mustaqillik har doim pedagogik faoliyatda alohida ahamiyat kasb etsa-da, zamonaviy pedagog uzluksiz ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo'lishi shart.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-farmoni [2] bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Interfaol metodlarining mohiyatidan xabardor bo'lishda, eng avvalo, tayanch tushuncha – "interfaol" atamasining lug'aviy ma'nosi "interfaol" (ing. "interact"; "interaktiv"; "inter" – o'zaro, birgalikda, "act" – harakat qilmoq, ish ko'rmoq) tushunchasi "o'zaro, birgalikda harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi.